

O'ZBEKISTON  
MUSULMONLARI  
IDORASI  
УПРАВЛЕНИЕ МУСУЛЬМАН  
УЗБЕКИСТАНА



إدارة مسلمي  
أوزبكستان  
MUSLIM BOARD  
OF UZBEKISTAN

2024-yil 26-iyul

02-01/1805-son

**“NEO INSURANCE CORP”  
AJga**

**Hurmatli J.Shirinov!**

Sizning 2024-yil 13-iyun kuni O'zbekiston musulmonlar idorasiga yo'llagan 01/0572-sonli xatingiz Fatvo markazi mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqildi. Murojaatingiz bo'yicha xulosa ilova qilinmoqda.

Ilova: 2 varaq.

Alloh taolo barchamizga ikki dunyo saodatini nasib etsin!

*Kamoli ehtirom ila,*  
**Raisning birinchi o'rinbosari**



**H.Ishmatbekov**

*Ijrochi: A.Qosim.*  
Tel: (78) 150-33-44.

**«NEO INSURANCE CORP» AJ**  
**KIRISH № 468/24**  
**2024 yil «29» may**



(+99871) 240-08-41



(+99871) 240-18-58



www.muslim.uz



umi-devon@mail.uz



moslim@mail.ru



t.me/muslimuzportal



youtube.com/c/Muslimuzz



fb.com/muslimuzportal



instagram.com/muslimuzportali



location



O'zbekiston musulmonlari idorasining 2024-yil 26 iyuldagi

02-01/1805-sonli xatiga ilova

**“NEO INSURANCE CORP” AJ tomonidan taqdim etilgan sug'urta qilish  
namunaviy shartnomalari bo'yicha**

**XULOSA**

“NEO INSURANCE CORP” AJ tomonidan 2024-yil 13-iyun kuni yo'llagan  
01/0572-sonli murojaatda:

- “Takoful darchasi” faoliyatini tashkil qilish siyosati;
- “Takoful darchasi”ga taalluqli zaxiralarni shakllantirish tartibi;
- Takoful fondi mablag'larini investitsiya qilish siyosati;
- “Takoful darchasi”ga taalluqli operatsiyalarni kompaniya buxgalteriya hisobida aks ettirish tartib va qoidalari;

- Takoful faoliyati bo'yicha Ekspertlar Kengashi to'g'risida nizom;
- Umumiy fuqarolik javobgarligini takoful sug'urta qilish shartnomasi;
- Lizingga beriladigan mol-mulkni takoful sug'urta qilishga doir shartnoma;
- Lizingga beriladigan transport vositasini takoful sug'urta qilish shartnomasi;
- Lizingga berilayotgan maxsus texnikani takoful sug'urta qilish shartnomasi;
- Garovga qo'yilayotgan mol-mulkni takoful sug'urtalash shartnomasi;
- Garovga qo'yilayotgan transport vositasini takoful sug'urtalashga doir shartnomasi;

– Transport vositalarini kompleks takoful sug'urtalash shartnoma namunalarini o'rganib, bu shartnomalar Islom moliyaviy xizmatlar bo'yicha belgilangan talablarga muvofiqligi borasida xulosa berish so'ralgan.

Mazkur shartnoma namunalari O'zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo markazi mas'ul xodimlari tomonidan o'rganib chiqildi va quyidagicha xulosa berildi.

Sug'urtalash Islom moliyaviy xizmatlar bo'yicha belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi uchun:

1. Badallar xayriya to'lovlari sifatida kiritiladi;
2. Sug'urta jarayonini tashkillashtiruvchi tijorat korxonasi (sug'urta operatori) ikkita alohida hisob raqami – biri tijorat korxonasining o'z faoliyati uchun, ikkinchisi sug'urtalanuvchilar jamg'armasi uchun ochadi;
3. Tijorat korxonasi (sug'urta operatori) sug'urta jamg'armasini boshqarish uchun vakil hisoblanadi;
4. Sug'urta jamg'armasi va sug'urta faoliyati bo'yicha majburiyatlar sug'urta jamg'armasiga tegishli bo'ladi;
5. Sug'urta jamg'armasidagi qoldiq mablag'ni shartnomada tasdiqlangan qoidalarga muvofiq: zaxira fondini tashkil qilish, xayryalarga sarflash, ishtirokchilar orasida taqsimlash kabi umumiy manfaatlarni ko'zlagan holda tasarruf qilinishiga ruxsat beriladi, sug'urtani idora qiluvchi tijorat korxonasi (sug'urta operatori) bu qoldiq mablag'ga haqli bo'lmaydi;

6. Takoful sug'urta tashkiloti tugatilgan holatda sug'urtaga taalluqli mablag' va zaxiralar mavjud bo'lsa, bu mablag' va zaxiralar xayriya maqsadlarida yo'naltiriladi;

7. Sug'urta tashkiloti (sug'urta operatori) barcha faoliyat turlarida shariat qonun-qoidalariga rioya qilishi shart;

8. Sug'urta tashkilotida shar'iy nazorat kengashi tashkil qilinib, ushbu kengashning qarorlari tashkilot tomonidan bajarilishi shart. Bundan tashqari, tashkilotda shar'iy nazorat va audit bo'limi ham bo'lishi lozim.

Mazkur shartlar va Shartnoma namunalariga muvofiq faoliyat yuritilsa Islom moliyaviy xizmatlar bo'yicha belgilangan talablarga muvofiqligini ma'lum qilamiz.

Bizning ushbu xulosamiz "NEO INSURANCE CORP" AJ tomonidan 2024-yil 13-iyun kuni yo'llagan 01/0572-sonli murojaati orqali yuborgan shartnoma namunalari uchun berilgan javob bo'lib, kompaniyaning barcha faoliyati shariatga muvofiq ekanini bildiruvchi "Sertifikat" emas.

